

Allohni tanish haqiqiy ma'rifatdir



18:03 / 15.11.2018 6985

Ey, farzand!

Namozning ruku, sajda va boshqa ruknlarini amr etilganidek, o'z joylariga qo'yib o'qimoq kerak. Saodat asrida Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam bir namozxonning ruku, sajdalarga e'tiborsizligini ko'rdilar va marhamat etdilar:

«Bu kishi namozlarida shunday davom etsalar, «yarim» holda ketadilar va hech qanday foyda ko'rolmaydilar».

Namoz ya'ni ruknlari joy-joyiga qo'yilib, amr qilinganidek o'qilmasa, ba'zi taqiqlarga ko'ra, namozlikdan chiqadi. Namozni mazax qilganday bo'ladi. To'g'ri namoz o'qimagan kishining dinida xayr bo'lmaydi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat etadilar.

«Namoz – din ustuni. Uni mukammal o'qigan dinni mukammal qilgan, uni buzgan dinni buzgan bo'ladi. Namoz – mo'minning me'rojidir».

Ey, farzand!

Namozni yengil-yelpi ish sanamaslik kerak. Botinida, zohirida diqqat-e'tibor etiladigan muhim xususiyatlari bor. Namoz namozxonni Parvardigor huzuriga ko'targuvchidir. Namoz o'qish Haq huzuriga chiqish demakdir. Namozda kimning

huzurida turganimizni aslo unutmasligimiz, zohiru botinni tuzatib turmog'imiz kerak bo'ladi. Zohiriy tuzatish joyni, libosni, badanni pok tutish bo'lganidek, botinini tuzatish esa, ma'naviy kirlardan tozalanish, turli xayollardan uzilishdir. Eng yuksak ko'ngil pokligi – ko'ngilni dunyodan uzishdir. Chunki namoz – izhori dildir. Namoz – roz. Rozilashishdir. Sirlashishdir. Ko'ngil forig'ligidir. Namoz – ko'ngilni poklovchidir. Ko'ngil – Alloh nazargohidir. Shuning uchun oriflar, so'fiylar namozdan tashqarida ham ko'ngilni pok tutadilar. Namoz insonni shunday soflikka, musaffolik osmoniga ko'targuvchi amal.

Ba'zan zohiriy poklikdan botiniy poklikka kelinadi. Ba'zan aksincha, botiniy poklik zohirda namoyon bo'ladi, ikkisining barobar kelishi komillikdirki, bu bilish, tanish bilan bo'ladi. Allohni tanish haqiqiy ma'rifatdir. Shuning uchun ham orif – ma'rifatli insonlar, komil insondir. Namoz shu darajalarga ko'targuvchi yoki ko'tarilish uchun vositadir. Namoz – go'zaldir va go'zallikdir. Go'zallikning haqiqati esa poklikdir. Zohiriy va botiniy poklik.

Alloh taolo Odam alayhissalomni yaratib, maloikalarga unga sajda qilishni amr etdi. Barcha farishtalar amrga muvofiq, Odam alayhissalomga sajda qildilar. Faqat iblis bu amrga qarshi bosh ko'tardi. Ya'ni sajda qilmasdan la'natlandi va jannatdan mahrum bo'ldi.

Ma'lumki, unda sajda Odam alayhissalomga edi. Holbuki, kunda besh marta qilinishi kerak bo'lgan, ya'ni amr etilgan sajda barcha olamlar Parvardigori Allohgadir, bu esa namoz bilan ado etiladi. U holda namozini tark etgan bir kimsaning ahvoli Iblisdan battarroq bo'lmaydimi?! Bundan Allohning O'zi asrasin!

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

«Namoz ichida o'qilgan Qur'onning har bir harfiga Alloh ming savob beradi. Namozdan tashqari, namozdan so'ng darhol o'qilgan Qur'onning har harfi uchun Alloh yuz savob beradi. Namozdan tashqarida (boshqa joylarda) o'qilgan Qur'onning har harfiga Alloh o'n savob bilan mukofotlaydi.

Qur'onni lozim bo'lganidek tinglagan kishi uchun Alloh har harfiga ming savob berishni mujdalaydi. Xatm etgan kishining esa har duosi qabul bo'ladi.

“Ey, farzand!” kitobidan